

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI**

**“JAHOLATGA QARSHI MA‘RIFAT” MAVZUSIDA IJODIY  
ISHLAR TANLOVI RESPUBLIKA BOSQICHI G‘OLIBLARINING  
IJODIY ISHLARI TO‘PLAMI**

**Toshkent - 2016**

Mazkur to'plamga "Jaholatga qarshi ma'rifat" mavzusida ijodiy ishlar tanlovi Respublika bosqichi g'oliblarining ijodiy ishlari kiritilgan.

### **Tuzuvchilar:**

- D.Ermatov – "Barkamol avlod" respublika bolalar badiiy ijodiyot markazi direktori
- B.Ro'zimurodov – Xalq ta'limi vazirligi Ma'naviy-axloqiy tarbiya bo'limi bosh nazoratchisi
- Y.Akbarov – "Barkamol avlod" respublika bolalar badiiy ijodiyot markazi direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari
- L.Hoshimov – "Barkamol avlod" respublika bolalar badiiy ijodiyot markazi guruh rahbari
- D.Nuriddinova – Respublika ta'lim markazi bo'lim boshlig'i
- I.Usmonova – Respublika ta'lim markazi bosh metodisti
- R.Boboqulov – "Barkamol avlod" respublika bolalar badiiy ijodiyot markazi guruh rahbari

## **SO‘Z BOSHI**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan 2016 yilda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash, konfessiyalar va millatlararo totuvlikni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi hamda O‘zbekiston Respublikasida 2016 yilda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar dasturi, shuningdek, vazirlikning 2016 yil 9 martdagi 62-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida umumta’lim maktablari o‘quvchilari o‘rtasida “Jaholatga qarshi ma’rifat” mavzusida ijodiy ishlar tanlovi tashkil etildi.

Aziz o‘quvchilar!

Sizga “Jaholatga qarshi ma’rifat” mavzusida ijodiy ishlar tanlovining respublika bosqichida g‘olib bo‘lgan o‘quvchilarning ijodiy ishlari to‘plami e’tiboringizga havola etiladi.

# INSHO YO'NALISHI

## SURXONDARYO VILOYATI

Sariosiyo tumani 68-sonli umumta'lim maktabining 8-sinf  
o'quvchisi **Boboqulova Tamanning**  
“**Jaholatga qarshi ma'rifat**” mavzusida yozgan inshosi

### “Jaholatga qarshi ma'rifat”

Reja:

- I. *Kirish: G'oyaga qarshi faqat g'oya.*
- II. *Asosiy qism:*
  - Jaholat – zulmatga yo'l;*
  - Ma'rifat – to'g'ri yo'lga boshlovchi kuch;*
  - Diniy ekstremizm va terrorizm oqibatlari;*
  - Ma'naviyatimizga tahdid – o'zligimiz va kelajagimizga tahdid.*
- III. *Xulosa: jaholatga qarshi kurashaylik!*

Ko'hna ota yurtim, qadim Turonim  
O'z beshik, o'z tilim, shavkatim, sha'nim  
Yetti iqlim ichra tengi topilmas  
Tuproqlari oltin O'zbekistonim.

Mirtemir

Ha, sevimli shoirimiz aytganlaridek, tuproqlari oltin O'zbekistonda yashaymiz. Uning toza havosidan nafas olib, ne'matlaridan bahra olamiz. Uning go'zalligini ta'riflashga til ojiz. Shoirlarimizning she'rlarida, bastakorlarimizning kuylarida Vatan madhi yangraydi. Ammo, shu go'zallikni ko'rolmaydigan nopok, manqurt, jaholatli kimsalar mavjud. Yurtimizning chiroyini ko'rolmaydigan kimsalarni kim deyish mumkin? Buni juda yaxshi bilamiz. Ular jaholatli kimsalar. Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'rifi bilan aytganda: “G'oyaga qarshi g'oya,

fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin.”

Xo'sh, ma'rifat nima-yu, jaholat nima? Jaholat izohli lug'atimizda “Ilm, ma'rifatdan mahrumlik, qoloqlik, madaniyatsizlik, nodonlik, zulmat” deya talqin etilgan. Ulug' yozuvchimiz Abdulla Qodiriyning “O'tgan kunlar” romanidagi Mirzakarim Qutidorning qizi – Kumushbibiga aytgan fikri yodimga tushdi: “Jaholat kelsa, aql qochadur, qizim!”

Ma'rifatga har qadamda jaholat to'siq bo'lishini hayotiy misollar orqali ham anglamoqdamiz. Demak, birinchi to'siq – jaholat. Jaholatga qarshi esa faqat ma'rifat bilan kurashish lozim.

Ma'rifatga esa izohli lug'atimizda “Kishilarning ong-bilimini, ma'daniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya”, deyilgan. Demak, jaholat bilan ma'rifat bir-biriga qarama-qarshi, bir-birini siqib chiqaradigan tushunchalardir.

Ma'rifat insonni doimo to'g'ri yo'lga boshlaydi. Ma'rifat kimgadir ko'z-ko'z qilinadigan, ortida qandaydir ta'ma yashirin bo'lgan narsa emas. Jaholat kabi kuchlarga doim ma'rifat qarshi chiqa oladi. Chunki, ma'rifat-to'g'ri yo'lga boshlovchi kuch. Ma'rifat - insonni ma'naviy kamolotga yetkazuvchi uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayonidir. Har kim jaholat urug'ini qurutishi lozim.

Sovet tuzumida ko'pgina xalqlarni ma'naviyatga chorlagan bobolarimiz o'ldirilgan. Ular yomon ishlari uchun emas, balki jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashganlari uchun otib o'ldirilgan. Masalan, Abdulla Avloniy bobomizning quyidagi fikrlarini keltirish mumkin: “Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir.” Bu chuqur ma'noli so'zlarning tagida qanchadan-qancha ma'no-mazmun yotibdi.

“Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq mamlakatimizda har jihatdan yetuk bo'lgan barkamol shaxsni tarbiyalashga katta e'tibor berilmoqda va bu yo'lda yoshlarni turli ma'naviy xurujlardan saqlash, ularda mafkuraviy imunitetni kuchaytirish, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish kabi vazifalar ustuvorlik qilmoqda.”

Darhaqiqat, dunyoni jaholat egallasa, nafaqat aql, balki aqlni peshlaydigan ma'rifat, ma'naviyat, hurfikrlik, inson ozodligi barcha-barchasi barham topadi.

“Bugungi kunda dunyoning turli mintaqa va hududlarida avj olayotgan qarama-qarshilik, jumladan, yaqin sharqda, Iroq va Suriya mamlakatlarida bo'layotgan qonli to'qnashuvlar, musulmon dunyosidagi mazhab va oqimlar o'rtasida kuchayib borayotgan ziddiyatlar, begunoh odamlarning qurbon bo'layotgani barchamizni tashvish va xavotirga solmay qo'ymaydi.”

Xalqimizning bir kun janjal bo'lgan joydan qirq kun barokat ketadi, degan naqlida katta ma'no bor. Mana, qo'shnimiz Afg'onistonda 35 yildirki, notinchlik. Urush jafokash Afg'on xalqi boshiga ne-ne kulfatlarni solmadi, deysiz. Beqarorlik tufayli mamlakat iqtisodiyoti izdan chiqdi, yurtdan qut-baraka aridi.

Prezidentimiz Islom Karimov “O'zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak” nomli risolalarida ta'kidlaganlaridek, xalqimiz qachon, qayerda bo'lmasin, duoga qo'l ochar ekan, avvalo tinchlik bo'lsin, omonlik bo'lsin, deb niyat qiladi, yaratgandan shuni so'raydi. Bu ikki so'z el-yurtimizning qon-qoniga, yurak-yuragiga, suyak-suyagiga singib, uning uchun hayot mazmuniga, bebaho qadriyatga aylanib ketgan. Zero, biz tinchlik va taraqqiyot yo'lini tanlagan xalqimiz, osoyishta yurtdan xotirjamlik ketmaydi. Shu bois el-u yurtimizning eng buyuk boyligi bo'lgan tinchlikni mustahkamlash, uni doim asrash har birimizning fuqarolik, farzandlik burchimizdir.

O'zbek adabiyoti namoyondalari asarlarining ko'pchiligida jaholatga qarshi kurash ifodalangan. Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasi fikrimizga dalil bo'la oladi. Hikoyada Sotiboldining xotini bemor-xasta najotga zorligi tasvirlangan bo'lsa-da, aslida butun jamiyat bemorligi, insonlarning ong-u shuurini jaholat qamrab olganligi yaqqol bilinib turibdi.

Shu kabi asarlardan yana biri Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug'bek” fojeasi. Unda o'sha davr jaholatiga qarshi kurash tasvirlangan, jaholat qoralanib, ma'rifat ulug'langan.

Har qanday ekstremistik va terroristik faoliyatning mohiyati o'zgalardan ustidan hukmronlikka yoxud mavjud siyosiy-mafkuraviy, ijtimoiy-iqtisodiy tartibotga qarshi zo'rvonlik, daxshat solish, jismoniy kuch ishlatish orqali o'zgalarning g'arazli maqsadlariga erishishdan iboratdir. Shuning uchun ham ekstremizm va terrorizmga butun jahon afkor ommasi, progressiv kuchlari tomonidan qoralanmoqda. XXI asr boshida insoniyat taqdiriga, uning taraqqiyotiga, ravnaqiga tahdid solayotgan xalqaro terrorizmga qarshi qanday kurash olib bormoq lozim?

“O'zbekiston Respublikasi Toshkent Oliy harbiy texnika bilim yurtida “Diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmning Markaziy Osiyo mintaqasi xavfsizligiga solayotgan zamonaviy tahdidi, terrorizmga qarshi kurashishda fuqarolarning ma'naviy va huquqiy madaniyatini yanada rivojlantirish masalalari” mavzusida respublika harbiy-ilmiy seminari bo'lib o'tdi. Unda diniy tashkilotlar, nufuzli ta'lim muassasalari hamda huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari ishtirok etishdi.”

(Internetning [www.trt.net.ter/uzbek/turk -dunyosi](http://www.trt.net.ter/uzbek/turk-dunyosi) 2016/04/O'zbekistonda-diniy-eksteremizm-va-terrorizmga-qarshi-kurash-yo'lida saytidan)

Terrorizm tom ma'noda jaholatdir. Buzg'unchi g'oyalarga asoslangan xalqaro terrorizm va uning har qanday ko'rinishi kishilik jamiyatining o'tmishida ham, bugunida ham butun xalqlar boshiga og'ir kulfatlar yog'dirmoqda. Har yili uning tajovuzidan 100 mingdan ortiq begunoh kishilar qurbon bo'lmoqda, jamiyat rivojlanishi ayrim davlatlar, mintaqalar va insoniyat sivilizatsiyasining taraqqiyotiga jiddiy tahdid solmoqda va tarqalishi ham ekstremizm va terrorizmning jahon miqyosida keng ko'lamda avj olishiga sabab bo'lmoqda.

Butun dunyo xalqlari diqqat markazida – Iroq va Shom islom davlati (ISHID) terrorchi tashkiloti vahshiyona harakatlarini hamon davom ettirmoqda. Birgina 2013 yilda ISHID Iroq hududida 10 mingdan ziyod terrorchilik harakatlarini sodir etib, xudkush terrorchilar esa 80 ga yaqin portlashlarni amalga oshirgan. Dunyodagi birorta ulamo bu “davlat”ni tan olmaydi. 2014-yil sentabr oyida 126 nafar ulamo tashkilot boshchisiga ochiq xat yozdi. Unda ISHIDchilar amalga oshirayotgan harakatlarni

Qur'on va hadisga zid ekani aytilib, insoniylikdan yiroq, manfur jinoyatlari qoralandi. ISHIDning kelajagi yo'qligi aniq. Uning faoliyatiga ertami-indin chek qo'yiladi. Eng yomoni, urush sababli dunyodan ko'z yumgan odamlarni endi hayotga qaytarib bo'lmaydi. Bu – ISHID faoliyat olib borayotgan mamlakatlardagi holat.

XX asr boshida Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining "Padarkush" asarida bu illatning kelib chiqishini aytib bergan edi: "Bizlarni xonavayron, bachagiryon, bevatan va bandi qilgan tarbiyasizlik va jaholatdur..." Jaholat 1999 yil 16 fevral kuni tariximiz sahifasida o'zining qonli izlarini qoldirdi. Buyuk shoir bobomiz Alisher Navoiy "Johillikdan besaodatliroq nima bor?" – degan ekanlar.

Yaqinda O'zbekiston Respublikasi xalq artisti Ozodbek Nazarbekovning 2015 yildagi konsertidan parcha ko'rdim. Suriyadagi urush qurboni bo'lgan bola o'limidan so'ngi so'zlari butun olamni larzaga soldi desam xato bo'lmaydi. Shifokorlar yaralangan bolaning hayotini saqlashga qancha urinishmasin, barcha harakatlar behuda ketdi. Endigina uch yoshga kirgan norasida o'zining o'lishini sezib, jon taslim qilar chog'ida ko'z yoshlari yuzini yuvib, shunday dedi: "Hammangizning ustingizdan Oллоhga arz qilaman. Hammasini unga aytib beraman."

Albatta bu so'zlarni eshitgan odamning nafaqat vujudi larzaga, balki ko'zi yoshga to'ladi. Mingdan-ming bor shukur, shunday jannatmakon, tinch, osuda, go'zal yurtda yashayman.

Prezidentimiz "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarlarida shunday deganlar: "Ma'naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e'tiqodidan qat'iy nazar, har qaysi odamlarning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlarni nazarda tutish lozim, deb o'ylayman."

Odam qachon tom ma'noda mustaqil bo'la oladi? Qachonki, qalbi va ongi, butun vujudi uning o'ziga tegishli bo'lsa, u faqat o'z xohish-irodasiga tayanib harakat qila olsa. Ma'naviy tahdidlar bizni ana shunday buyuk imkoniyatlardan, ya'ni bu dunyoda ixtiyori o'zida bo'lgan ozod va hur inson bo'lib yashash baxtidan judo qilmoqchi bo'ladi.



Xulosa shuki, yurtimizda osoyishtalik hukm surayotgan davrda dunyoning turli hududlarida keskin qarama-qarshiliklar, to's-to'palonlar sodir bo'lmoqda. Bu esa barchamizni doimo hushyor va sergak bo'lishimizga da'vat etadi. Demak, yoshlarimizda yovuz xurujlarga qarshi kuch-immunitet shakillansa, ularda hech qanday tahdid o'zining zararli ta'sirini o'tkaza olmaydi.

Shunday ekan ogoh bo'laylik!  
Zulmat ichra hech bir giyoh unmaydi,  
Botqoqlarda hech bir chaman bo'lmaydi.  
Ma'rifatning yo'lida bo'l ey do'stim.  
Jaholatli buyuk inson bo'lmaydi.

## JIZZAX VILOYATI

Jizzax shahri “Umid” ixtisoslashgan Davlat umumiy o‘rta ta’lim maktab-internatining 9-sinf o‘quvchisi **Rahmatova Xonzodabegimning**  
**“Jaholatga qarshi ma’rifat”** mavzusida yozgan inshosi

### “Jaholatga qarshi ma’rifat”

#### Reja:

- I. *Kirish: Ma’rifat-insonni ezgulik sari boshlovchi mayoq.*
- II. *Asosiy qism:*  
*Mustaqillik bu orzular ro‘yobi;*  
*Ma’naviyatga tahdid- o‘zligimiz va kelajagimizga tahdid;*  
*G‘oyaga qarshi g‘oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma’rifat.*
- III. *Xulosa: Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish bizning bosh maqsadimiz.*

G‘urbat izlaganga g‘urbatdir dunyo,  
Illat izlaganga illatdir dunyo,  
Kim neni izlasa topgay begumon,  
Hikmat izlaganga hikmatdir dunyo.

Sadriddin Salim Buxoriy

Hayot inson uchun berilgan eng buyuk ne’matdir. Bu ne’matning qadriga yetish, har bir daqiqasini mazmunli o‘tkazish, odamlarga mehr-muruvvat ko‘rsatish, o‘zidan yaxshi nom qoldirish esa barcha insonlarning vazifasidir. Bu vazifani ado etishdagi eng muhim vosita, ta’bir joiz bo‘lsa, ezgulik sari boshlovchi mayoq, nurli kelajak sari boshlovchi mashal-ma’rifat. Bugun biz tez suratlar bilan o‘zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o‘ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashayapmiz. Hozirgi paytda yer yuzida qanday voqealar yuz bermasin, odamzod bu haqda zudlik bilan xabar topishi hech kimga sir emas. Globallashuv jarayoni hayotimizga

tobora tez va chuqur kirib kelayotgan bir paytda mamlakatimizda tinchlik, barqarorlik hukm surmoqda. Bu esa xalqimiz ma'naviyati va madaniyatini boyitishga berayotgan yuksak e'tiborning samarasi desak xato bo'lmaydi. Yurtimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni sog'lom va barkamol insonlar etib voyaga yetkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki murakkab va tahlikali zamonda milliy qadriyatlarimizga yot g'oyalar, yoshlarning ongi va qalbini egallashga qaratilgan g'arazli xurujlar tobora kuchayib bormoqda.

Bunday vaziyatlarda ma'rifatning inson hayotida turli g'oyalarga qarshi immunitet hosil qiluvchi eng muhim vosita ekanligi yanada o'z isbotini topib bormoqda. Buyuk shoir mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy aytganlaridek: "Har ishni qilmish odamizod, tafakkurla bilmish odamizod". Ya'ni inson tafakkur, ma'rifat orqali o'z hatti-harakatlarini amalga oshiradi. Ma'rifatga, tafakkurga asoslanmagan har qanday harakat befoyda harakat demakdir. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasiidagi ilmsizlik va ma'rifatsizlikning ayanchli oqibatlari fikrimizning yorqin namunasi bo'la oladi. Unda farzand o'zining manan qashshoqligi tufayli jaholat botqog'iga botishi, ya'ni boylik ilinjida o'z padari buzrukvorining joniga qasd qilishi padarkushga aylanishi hayotiy misollar orqali ko'rsatilgan.

Bugun biz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalarida bundan 25 yil avval tasavvur qilish qiyin bo'lgan yutuqlarga erishdik. Xalqimiz bularning hammasini tinchlik, osoyishtalik tufayli qo'lga kiritdi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ta'lim, sport, fan, san'at, tibbiyot, tadbirkorlik sohalarida ko'plab islohotlar amalga oshirildi. "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" kabi uch bosqichli sport musobaqalarining tashkil etilishi, istedodli qizlar va yoshlarni aniqlash uchun "Zulfiya", "Nihol" davlat mukofotlarining tasis etilishi buning amaldagi yaqqol ifodasidir. Chindan ham O'zbekiston yoshlari dunyodagi eng baxtli yoshlar sirasiga kiradi. Chunki yurtimizda ularning o'z qobiliyat va iqtidorlarini namoyish qilishlari uchun barcha shart-sharoitlar mavjud.

Xalqimiz ma'naviyatiga qarshi qaratilgan har qanday tahdid va tajovvuz bevosita mustaqil yurt xavfsizligiga uning milliy manfaatlariga qaratilgan bo'ladi.

2015 yil 15 noyabr kuni "Umid" maktab internatimizda "Ogohlik-davr talabi" deb nomlangan tadbir bo'lib o'tdi. Unda Jizzax viloyat Ichki ishlar boshqarmasi, Milliy xavfsizlik xizmati xodimlari, shahrimizning yetakchi imom-xatiblari, professor o'qituvchi va o'quvchilari ishtirok etishdi. Unda "So'qirning pushaymoni" nomli film namoyish etildi. Tadbirda yoshlar buzg'unchi g'oyalarga qarshi bunyodkorlik g'oyalari bilan qurollanmoqliklari, har bir inson manfaatli bo'lmog'i lozimligi ta'kidlandi. Mahmudxo'ja Behbudiy aytganlaridek: "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lur".

Dunyo sahnida yuz berayotgan har bir jarayon bevosita barcha davrlar uchun ham daxldorligi bugun hech kimga sir emas. Shu ma'noda ogohlik davr talabi bo'lishi bilan birga, turli xil yot va buzg'unchi g'oyalarga qarshi immunitetni shakillantirish, fuqarolik jamiyatini shakillantirishga xizmat qiluvchi chora-tadbirlar ko'lamini kengaytirish, yoshlar ongida yurtboshimiz I.Karimov ta'kidlaganlaridek: "G'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma'rifat" kabi tushunchalarni tarkib toptirish muhim ahamiyat kasb ettirmoqda. Barchamizga ma'lumki, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishda ma'rifatning o'rni beqiyos. Zero, inson ota-bobolaridan me'ros bo'lib qolgan milliy qadriyatlar, an'analar, boy ma'daniy merosni o'rganish orqaligina o'zligini anglaydi, buzg'unchi g'oyalardan bunyodkor g'oyalarni ajrata oladi. Ammo afsuski, tengdoshlarimiz orasida bilib-bilmay turli aldov, yolg'on va'dalarga uchib, yot g'oyalar ta'siriga tushib qolganlar ham uchrab turadi. Achinarlisi esa ular elu-yurt, ota-onasi, Vatani koriga yarashdek vazifalarni unutib, o'z kelajaklariga bolta urmoqdadar.

Mamlakatimizda yoshlarga yuksak e'tibor berilayotgan bir paytda, ayrim tengdoshlarimning bunday hatti-harakatlarini noshukurlik deb baholagan bo'lardim. Agar biz ongli ravishda har qanday xurujlarga qarshi

o‘zimizda “G‘oyaviy immunitet” hosil qilsak hech qanday kuch bizni yenga olmaydi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, barchamiz bir tanu bir jon bo‘lib davlatimiz tomonidan qaratilayotgan yuksak etiborga javoban Vatanimiz, yurtimiz istiqboli yo‘lida tinmay mehnat qilib, jonajon O‘zbekistonimizning jahonning eng rivojlangan davlatlari qatoridan munosib o‘rin egallashiga o‘z hissamizni qo‘shishimiz kerak.

## SIRDARYO VILOYATI

Sirdaryo viloyati 1-sonli xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktab-internatining 8-sinf o‘quvchisi **Shodmonqulova Charosning** “Jaholatga qarshi ma’rifat” mavzusida yozgan inshosi

### “Jaholatga qarshi ma’rifat”

#### Reja:

- I. Kirish: asrlar davomida jaholatning insoniyatga xavfi haqida.*
- II. Asosiy qism:  
Biz qanday jamiyat barpo etmoqdamiz?;  
Yoshlarga e’tibor-kelajakka e’tibor.*
- III. Xulosa: biz buyuk yurt farzandlarimiz!*

Taraqqiyot taqdirini ma’naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Tehnikaviy bilim, murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma’naviy barkamollik bilan, mustaqil tafakkur bilan borishi kerak. Aqliy zakovat va ruhiy – ma’naviy salohiyat ma’rifatli insonning ikki qanotidir.

I.Karimov

Insoniyat yaralibdiki, umri hayot otliq sinov bilan o‘tadi, -dedilar buvim. Avvaliga o‘ylanar edim, bu qanday sinov ekan deb. Yoshim ulg‘ayib, maktabda ustozlarimdan adabiyot, tarix, milliy istiqlol g‘oyasi kabi fanlarni o‘rganganimdan so‘ng bu gaplarning mag‘zini chaqa boshladim. Angladimki, hayot sinovi yaxshilik va yomonlik, adolat va jaholat o‘rtasida, bunyodkorlik va vayronkorlik kabi kurashidan iborat ekan.

“Moziyga qaytib ish ko‘rmak xayrlidir”, - degan edilar Abdulla Qodiriy. Ha, chindan ham, moziy bizga o‘tmishda ota-bobolarning yashab o‘tgan shonli hayot yo‘li haqidagi yorqin guvoh, bularni biz tarix

kitobimiz sahifalaridan, u haqda yaratilgan tarixiy asarlar, kinofilmlardan yoki madaniy meroslarimiz bo‘lmish tarixiy-me‘moriy yodgorliklardan o‘rganamiz va bizgacha, yani istiqlol yillarigacha bosib o‘tilgan yillarning oson bo‘lmagani haqida bilib olamiz.

To‘g‘ri, biz mustaqillikni qon to‘kmasdan qo‘lga kiritdik, ammo bu – haqiqiy mustaqillik kurashsiz qo‘lga kiritiladi, degani emas. Mustaqillikni himoya etish, mustahkamlash, istiqlolni eplash ham zarur. Mustaqilligimizning yashab o‘tgan 25 yili dunyoda xalqimizning nechog‘lik uddaburon va epli ekanligini isbotlamoqda, chunki bizning ijtimoiy taraqqiyot va yangilanish borasida o‘z yo‘limiz bor. Bugungi kunda bu yo‘l butun dunyo xalqlari tomonidan rivojlanishning o‘zbek modeli deb tan olingan va bu model taraqqiyotning asosini tinchlik va barqarorlikda deb biladi.

Shukurki mustaqilligimiz, hamda yurtboshimizning olib borayotgan odil siyosati tufayli, bugun yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, elning ko‘ngli xotirjam, xalqimiz esa bunyodkor. Shu sababli yurtimizning jamoli kundan-kunga chiroy ochmoqda, yangi binolar, inshootlar, bog‘u-rog‘lar bunyod etilmoqdaki, ularning barchasi el manfaati yo‘lida hizmat qiladi.

“Ko‘zi ojizga o‘qish imkonini bering u insoniyat tafakkurining eng buyuk, eng g‘aroyib yutuqlarini his etishga qodir” degan edi nemis yozuvchisi A.Krogius. Hatto so‘qir ko‘zi bilan ilmga, ziyoga intilayotgan insonlar bor dunyoda, ko‘zi ochiq – qalbi ko‘r bo‘lgan manfur kimsalarning bo‘lishi achinarli, hamma ularga qarshi insoniyatda eng qudratli qurol-ma‘rifat mavjudki u orqali inson o‘zining hayvonotdan ustunligini isbotlagan. Aynan ilm, ma‘rifat insonni komillikka yetaklaydi. Komil inson esa faqatgina ezgu fikr, ezgu o‘y va ezgu amal bilan yashaydi.

Ma‘rifatning nuri bilan inson o‘zining qorong‘u yo‘lini ham yoritishga qodir. Diniy va dunyoviy bilim bilan yoritilgan ta‘lim-tarbiyamiz biz yoshlarni har qanday johillikka qarshi kurasha oladigan immunitet bilan -g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma‘rifat bilan kurashmoqqa chog‘langan.

O‘zbekiston rivojlanish jarayonini boshdan kechirmoqda. Rivojlanish esa o‘z navbatida inson tafakkurini jilovlab turgan

aqidaparastlikdan xalos bo'lishni taqazo etmoqda. Bugungi taraqqiyot kishilar dunyoqarashini tubdan o'zgartirgan. Ilgari o'zbek xalqi o'z o'tmishidan ko'ra zamonasi tarixini yaxshi bilardi. Bugun esa aksincha. Zamonani anglashga bo'lgan ishtiyoq hech qachon so'nmasligi kerak. Shundagina fikrlashimiz dunyoqarashimiz kengayib boradi.

Ammo afsuski, yurtimizning yuksak taraqqiyot cho'qqisiga ko'tarilayotganini ko'rolmaydigan kishilar yo'q emas. Bunday kuchlarga qarshi kurashayotgan insonlar esa chin vatanparvarlardir. Bizning tinchligimizga rahna solmoqchi bo'layotganlarga nisbatan:

Olisdagi mahmadona ey eski olchoq,  
Menga qadam tashlamoqni o'rgatmagin sen!  
O'zingga boq, keyin, mayli nog'orangni qoq!  
Menga qanday yashamoqni o'rgatmagin sen  
Tinchlik deya yurak bag'ri kuyuk eldir bu,  
Yaratganning qoshida eng suyuq yurtidir bu,  
O'tmishi ham, ertasi ham buyuk eldir bu,  
Menga qanday yashamoqni o'rgatmagin sen!

deya shoir Iqbol Mirzo so'zlari bilan javob bermoqchiman.

Fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lida kattalar bilan sobitqadam biz yoshlar Vatanimizda inson manfaati har nedan ustun ekanligidan, barcha sohada amalga oshirilayotgan islohotlar inson baxti, saodati uchun ekanligidan faxrlanamiz.

Nomardlar qahridan charchadi jahon,  
Nokaslar zaxridan charchadi jahon,  
O'zingni tut inson, ko'zingni och inson  
Bu muqaddas Vatanda azizdir inson.

O'tgan 2015 yilning oxiri, ya'ni dekabr oyida maktab-internatimizda o'tkazilgan "Keksalarni e'zozlash-farzandlik burchimizdir" nomli festivalda biz o'quvchilar o'zimizning rasm chizish, she'r yozish, insho



yozish, qo‘shiqlar aytish borasidagi istedod va iqtidorlarimizni namoyish etdik. Keksalarning pand nasixatlarini tingladik va ularni konsert dasturi bilan suyuntirdik, ularning olqishu duolarini oldik. Albatta bu tadbirlar biz yoshlarning o‘z huquq va burchimizni to‘g‘ri anglashga ularni to‘g‘ri ado etishga qaratilgan tadbirlardan biri bo‘lib bizlarni kelgusida buyuk ishlar qilishga undaydi.

Keksalarni e‘zozlashga o‘rgatgan bu festivalda tashrif buyurgan bobo-buvilarimiz, mehnat faxriylarining ularga ko‘rsatilgan ozginagina e‘tibordan boshlari ko‘kka yetdi. Men bundan shunday xulosa qildimki, bizning yurtda har qanday qadrning, e‘zozning o‘z o‘rni bor. Bizning yurtda kattalar hurmatda, kichiklar izzatda. Odamlarimiz johiliyatdan yiroq, bugun vatandoshlarim faqat yaratuvchanlik, obodonlashtirish fikru o‘yi bilan band. Kelajakni ajdodlarimizga munosib tarzda qurish, yurtni obod va ozod etish siz, bizning mana shu buyuk yurt deb atalmish O‘zbekiston farzandlarining sharaflig burchidir!

## TOSHKENT SHAHAR

“Eng yosh ijodkor” nominatsiyasi g‘olibi  
Shayxontohur tumani 34-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining  
7-sinf o‘quvchisi **Usmonxo‘jayeva E‘zozaning**  
“**Jaholatga qarshi ma‘rifat**” mavzusida yozgan inshosi

“Jaholatga qarshi ma‘rifat”

Reja:

1. *Vatan sajdagoh muqaddas.*
2. *“Ma‘rifat” qasri.*
3. *Tinchlikka raxna soluvchilar.*
4. *Ogohlik-davr talabi.*

“Fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi  
g‘oya, jaholatga qarshi ma‘rifat”

I.A.Karimov

Inson hayotda yashar ekan, oshini oshar ekan, butun umri davomida el ardog‘ida o‘sib-ulg‘aytirgan, bag‘rida avaylab, nojo‘ya ish qilsak, mehr ila tarbiyalab kamol toptirgan Vataniga shukrona keltirib o‘tadi. Darhaqiqat, kindik qoni to‘kilgan, qarib qaddi ham o‘z yurtida bukilgan inson; farzandlari betob bo‘lib, boshiga tashvish tushsa, kuyungan, dilbandlarining yutuq va g‘alabalaridan suyungan yurtiga ming-ming rahmat aytsa ham uni deb jannatdan qaytsa ham kam.

O‘zbekistonda yashayman men, unda inson huquqlari teng. O‘zbekiston haqida gap ketsa, so‘zlarim tamom bo‘lib, qo‘lim yozishdan tolib, og‘zim so‘zlolmay so‘lib qoladi. O‘zbekiston – ajib bir bo‘ston. Unda biz yashaymiz shodon. Usiz yashab bo‘lmas hech bir on. Udir quyosh sevgan jannatmakon. Tinch eldir bu, ammo notinch zamon, ogohlikka chorlar har qachon. Undan yiroqlashsam, bo‘lib qolgum

notavon. Yashnaydi bu zaminda buyuk Turon bu diyorni ko'rganlar hamisha bo'lib kelgan lol, katta-kichikka yumush bajarish kelmaydi malol.

O'zbekiston gulshanimda hamma narsa mujassam, fan-texnika, shart-sharoit bari jamul jam. Yurtboshimiz der: "Biz hech qachon hech kimdan emasmiz kam, va albatta, ko'rmaymiz g'am!" bu makonni ko'rmagan bo'lar armonda, kelib ko'rib ketganlar doim darmonda. Nega deysizmi? Yana shu diyorga kelishni unda shamol bo'lib yelishni istaguvchilar ko'p.

Vatanim haqida so'zlar ekanman, quyidagi misralar qalbim tubidan vulqondek otilib chiqadi:

Tug'ildik, quv nab-o'ynab, shodon o'sdik biz,  
Vatan bag'rida baxtiyor har bir o'g'il-qiz.  
Biz ulg'ayib, albatta, jaholat yuzin to'samiz  
Yurtimizni har qanday nokaslardan asraymiz  
Kelajak bizniki xalq ishonchin oqlaymiz,  
Ma'rifat, ezgulik ishin doim yoqlaymiz.

Vatanim go'zallikka juda boy, unda maslahatchi to'lin oy, yurtga berar ajib bir chiroy. Sahovat, oqillik, hurmat, sabr, kamtarlik, halollik, tinchlik erurlar vazir, ular bilan qurganmiz "Ma'rifat" degan qasr, qasr buzilmas o'tsa ham necha asr.

Har bir fazilatning o'z o'rnini bordir, qozi-adolat, mingboshi-nafosat, elchi-kabutar, barchasining boshlig'i nomus va ordir. Savol tug'uladi: shoh kim? Men aytaman yuzimda tabassumla nim: bu qasr podshohi mehr, mehr go'yoki misli bir sehr. U bor yerda bo'lmaydi qaxr, u orqali yaralar barchasi, ahr! Shuning uchun qasrga shoh etdim uni, yaxshilik ko'paymoqda doim, har kuni.

Qancha inson umridan, hayotidan mamnun, yurtim madhini etar tarannum. Jannatmakon, mehrga kon, xalqi mehribon, panohida asrovchi soyabon, u haqida gap ketganda toluvchi zabon, serquyosh o'lkamizni olsak. Yurtimiz tarixin aytay birma-bir, avvallari soboq tarkibida ittifoq bo'lganimiz emas sir. IX-XV asrlarda bo'lganmiz makoni ma'rifat, eng

rivojlangan, yuksalgan mamlakat. Yuqori darajada ketayotganda yuksalish va o'sish ahillikka dars ketdi, lozim edi jaholat yuzin to'sish. Manqurt kimsalarning ko'zi ko'r edi, mansab va boylikka, yurtimiz bo'linib ketti uch xonlikka. Iymonim komilki, agar o'sha dam yurtimiz uch xonlikka ajralmaganida, avval ham, hozir ham, keyin ham bo'lardik eng yuksak yurt maqomida.

Qaramay shunday bo'lishiga, yurtboshimiz Islom Karimov Moskvaga borib aytdilar erishmoqchi ekanliklarini mustaqillikka. Shunda kulib rus amaldorlari: "olasan sen bizdan texnikani. Bizniki sanalur hatto ketmoning, mustaqil bo'lgach, qanday kechar ahvoling? Boyliklarni qanday qazib olasan?"-degan ekan. Oliyhimmat yurtboshimiz deydi shunda: "Mayli bizga kerak emas texnika. Qo'llarimizla qazib olgum boylikni bersangiz bas, faqat mustaqillikni".

Bu so'zlar ajoyib naqadar, uning tubida ma'no bor osmon qadar. Gap shundaki tazyiq, zo'riqish, kamsitilishlardan xalq toliqqandi butkul, shu sabab tayyor edi bajarishga har qanday vazifa bo'lsa ham mushkul.

Sevimli yurtboshimizning tashabbuslari bilan tinimsiz mehnat va harakatlari natijasida intiqib kutilgan, u uchun Abdurauf Fitrat, Bexbudiy, Cho'lpon, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy kabi millat ma'rifatparvarlari jon fido qilgan, xalqimizning azaliy orzusi bo'lgan baxtga-mustaqillikka erishdik. Samarasini ko'rsatdi qilingan harakatlar erk va hurlik uchun, tan bermoqda bizlarga dunyo bugun, boshimizni baland tutib, quvonmaylik nechun? Qisqa va ko'z ilg'amas 25 yil mobaynida yurtimiz erishdi ko'p muvafvqiyatlarga. Quchdi ulkan va beqiyos zafarlar, qilindi ko'p yurtlarga safarlar. Bu diyorda hamisha bahor odamlarda boylikdan ustun nomus-or.

Yoshlarning dunyoqarashi, tafakkuri, bilim sa'viyasi va maa'rifatini boyitish maqsadida ko'rildi keskin chora, olib borildi jadal ish, chiqarildi ko'plab qonun, farmoyish. Belgilandi 12 yillik majburiy ta'lim. Bu dargohda ilimga kon ustozlar berar bizlarga bilim. Ustozlarning biz uchun chekkan zaxmati sababli hozirda biz yoshlar bilimli va savodli.

Shu dam bizga qalb qo'rini, mehr nurini bergan ustozlarga qarab shunday degim keladi:

Bizni sevib, farzand kabi ardoqlab  
Mehr bilan boshimizni silaysiz.  
Misli quyosh qalbimizni yoritib,  
Bilim berib kelajakka yo‘llaysiz.

Haqiqatdan, ham ustozdir qo‘lda qalam tutishni, maktabda, jamoatda o‘zni qanday tutishni bergan saboqlarini yodda saqlamoq lozim, mehridir tog‘dek azim. Ustoz, sizga bir umr qilay ta‘zim. Ona tilga bo‘lgan cheksiz muhabbatni uyg‘otti ustoz, undan qancha minnatdor bo‘lsak, shuncha oz. Ustoz tufayli ona tilimga mehrim kuchaydi, ona tilimga atalgan dil so‘zlarim misralarga ko‘chadi:

Bugun tan olmoqda keng dunyo  
Mehringdir bizlarga to‘tiyo  
O‘zingga bo‘lganman mahliyo  
Onam kabi azizsan, tilim!

Qolaversa o‘rta ta‘lim maktabini tamomlagan yurtimiz yosh avlodi uchun litsey yoki ko‘llejlarda tahsil odishga yaratilda sharoit. Qizig‘i shundaki, olingan ta‘limdan so‘ng kasb-hunar ko‘llejlari yoki akademik litseylarda erkin tarzda, istagan yo‘nalishda oliygohlarga davlat imtixonlarini topshirib talabalik baxtiga muyassar bo‘lishlari mumkin.

Dunyo xalqlari o‘z farzandlarini ta‘lim sohasiga qanday jalb qilishlari haqida bosh qotirayotgan bir vatda, O‘zbekiston yoshlarining 97% bepul ta‘lim olmoqda.

Ana shunday imkoniyatlardan to‘liq foydalangan va Vatan ishonchini oqlagan ma‘rifatning ishin yoqlagan O‘zbekiston Milliy universitetining ikki talabasi Xalqaro Olimpiadada matematika fani bo‘yicha ishtirok etib, boshlari osmon qadar yetib, ona yurtiga oltin medal bilan qaytishdi. Chunki ular eng yuqori balni olishga musharraf bo‘ldi, bu ulkan g‘alabadan ko‘zlar yoshga to‘ldi. Dunyo olimpiadasi tarixida bo‘lmagandi bunday hol, hay‘at a‘zolari-yu olimlar, go‘yo butun olam hayron, lol.

Degani eng oliy balni kiritish qo‘lga, bizning yoshlarimiz yo‘l qo‘ymay, hech qanday xatoga o‘z istedod va mahoratlarini etib namoyon, isbotladilar o‘zbek yoshlari kam emasliklarini hech kimdan.

O‘zbekning odamlari mehribon, dilkash, hushchaqchaq, oqil hamda xazilkash. Ammo guruch emas kurmaksiz, buni yaxshi bilamiz siz-u biz, ogoh bo‘lmagan bazi o‘g‘il-qiz o‘zidan qoldirar yomon iz.

Dunyoda bo‘lar ikki xil inson. Biri xoyin-u, biri haqiqiy inson. Sotqin, bilimsiz, xiyonatchi jaholatga botgandir, uning qalbida g‘azab va nafrat kurtak ochib, ildiz otgandir. Jaholat botqog‘idagi kishi ko‘ziga ko‘rinar faqat pul, bilsangiz, ular jamiyat uchun misoli bir kul. Mansab uchun, pul uchun, obro‘-e‘tibor uchun, sotishgadir tayyorlar yurtin, yaqinin. Or, nomus, sadoqat unga begona, azoblanar, faryod chekar mushtipar ota ona.

Avvalo tarbiya oiladan boshlanar, yoshligidan mehr bilan bezak berib ishlanar, bezak qahr bo‘lsa, vaqt o‘tgach, ko‘z yoshlanar. O‘qib o‘rganmaslik, savodsizlik oqibatida dars ketadi ularning baxt-u saodatiga. Bilimsizlik sababli ko‘pgina yoshlar kirib bormoqdalar turli oqimlarga, ularning madori yetmaydi turfa xil bosimlarga. Dinni niqob aylab, qilmoqdalar odamni bandi. Bunday razil ishlar xos emasdir tanti kishiga. Zo‘ravonlik, tajovvuz bilan egallamoqdalar butun dunyoni, bu ishlar xuddi qo‘lga tutish ro‘yoni. O‘z fikrida sobit turib aqidaga berilib, xullas, barin sanasak turibdida terilib. Kirib kelib “G‘arb madaniyati” zarar ko‘rmoqda insoniyatning madaniyati. Urfga kirib ulgurdi “Ommaviy malaniyat”, odamzotni qilish kerak tezkor tarbiyat. Dunyoda ko‘p mehr, boylik gadosi, insonga katta ziyon keltirar “Odam savdosi”. Boylik, amal uchun odamlar, xavfli moddalardan sotarlar. Nechun bo‘lmoqda buncha tashvishlar? Lol bo‘lib, hayron bo‘lib, inson yoqa ushlar. Giyohvandlik, chekish keskin avj olmoqda, zararlari haqda so‘zlasam, zabon tolmoqda aslida, barchasida inson sababchi bo‘lmoqda.

Dunyo xalqlariga nazar tashlagan odam borki, mamlakatlarda notinchlik, ocharchilik ekanin bo‘lar guvohi hatto, eng rivojlangan davlatlar zalolatga yuz tutmoqda ularni jaholat o‘z domiga yutib ketmoqda.

Haqiqatdan, bugun notinch dunyo. To'g'ri, bironing mulkiga ega bo'lish, solish o'zgalarning baxtiga soya, o'z manfaatini ko'zlab ish yuritish, barcha davrda bo'lgan bu ahmoqona g'oya.

Dunyoda behisob tashvish keltirgan qancha odamlarni baxtsiz qilgan jaholat haqida o'ylar ekanman, nafratim quyidagi misralarda namoyon bo'ldi:

Bugun dunyo ahli ko'rdi ko'p sitam,  
Jaholat bizlarga berda qayg'u ham  
Nur bordurki, doim bo'lur soya ham  
Ma'rifat-bu botqoqqa sanalur malham

Ma'rifatdir, demak, jaholat shifosi axir har narsaning bo'lur davosi. Ma'rifatli inson baxtin topadi albat. Yurtboshimiz aytgan edi: "Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat"

Ha ularning bu ajib va hikmatli so'zlari o'z isbotini topdi, jaholatning eshigini yopdi. Albatta barcha yovuzliklarga qo'yib bo'lmas chek, ammo dunyo tantilarga bu eshiklar berk.

Buning uchun talab qilinmaydi ko'p narsa bizdan yaxshi o'qish, intizom, odob so'ralur har o'g'il qizdan. Or-nomus, shijoat adolatga da'vat qilinar har dam, va'daga vafo bo'lsin, zero, qaytmas yigit so'zidan, arslon izidan.

Biz bo'laylik hamisha rostgo'y, ahil, lekin dushmanligini bilaylik inson bo'lsa gar bahil. O'zbeklar yo'qlar, hol-ahvol so'rar agar bo'lsa bemori, ularda mustahkamdir ibo, hayo va ori. "Har kim ekanini o'rar!" – bu o'zbekning shiori. Dunyoda mehr abadiy bo'lsin, u tufayli barchaning ko'zi porlasin, kulsin.

O'zbek bolalariga butun dunyo havas bilan qaraydi, ona Vatani uni sevib, oq yuvib, oq taraydi. Umrning zo'r pallasini bu beg'ubor bolalik, quvnoq kichkintoylarning shodligi dunyochalik. Har bir harakatlari yarashar o'zlariga, yulduzdek chaqnab turar qaranglar ko'zlariga. Bunday ajib damlarning biz qadriga yetaylik, uning har bir lahzasini dil-dildan his etaylik.

Ma'rifatparvar yurtimga bo'lsin ko'p olqish, doim bahor, yoz bo'lsin u bo'lmasin qahraton qish. Ma'rifatda yurtimiz doim peshqadam uhaqdagi satirlarim xayolimga keldi shu dam:

Ma'rifat-ezgulik, bu chin haqiqat  
Boylik kerak emas, ma'rifat davlat  
Navoiy, Bobirdan olaylik ibrat,  
Tinch, osuda yashaymiz shunda toabad.

So'zimni yakunlar ekanman Vatanimning naqadar go'zalligiga, obod ekaniga, adolat me'zonlariga tayangan holda barpo bo'lganiga yana bir karra shohid bo'ldim va notinch zamonda tinch yashayotganimizga beaded shukrunolar aytdim.

Azizlar, hamisha bo'laylik ogoh, jarlikka qulab tushmaylik nogoh. Ogohlik bor yerda o'sish ham, rivojlanish ham, yuksaklik ham-bular barchasi, hamisha yashnab turar yashin archasi, ogohlik sanalur ko'ngil parchasi. Ogohlik ham hayot maktabidir, zero ogohlik davrimizning eng katta muhim talabidir.



## RASM YO'NALISHI

### NAMANGAN VILOYATI

To'raqo'rg'on tumani 44-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi **Xabibullayeva Komilaning** **“Jaholatga qarshi ma'rifat”** tanlovining tasviriy san'at yo'nalishi bo'yicha tayyorlagan ijodiy ishi



### TOSHKENT SHAHAR

Chilonzor tumani 164-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi **Muhammedov Jamshidning** **“Jaholatga qarshi ma'rifat”** tanlovining tasviriy san'at yo'nalishi bo'yicha tayyorlagan ijodiy ishi



## SURXONDARYO VILOYATI

Qumqo'rg'on tumani 70-sonli umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi **Murodova Madinaning** “**Jaholatga qarshi ma'rifat**” tanlovining tasviriy san'at yo'nalishi bo'yicha tayyorlagan ijodiy ishi



## XORAZM VILOYATI

“Eng yosh musavvir” nominatsiyasi g'olibi  
Urganch shahar 24-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi **Jumaniyozova Farangizning** “**Jaholatga qarshi ma'rifat**” tanlovining tasviriy san'at yo'nalishi bo'yicha tayyorlagan ijodiy ishi



## SHE'R YO'NALISHI

### ANDIJON VILOYATI

Baliqchi tumani 12-sonli Davlat ixtisoslashgan umumiy o'rta ta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi **Orifjonova Irodaning** "Jaholatga qarshi ma'rifat" mavzusida yozgan she'ri

"Jaholatga qarshi ma'rifat"

Dunyo-yu azaldan ma'lumu mashhur,  
Oq bilan qoraning kurashi tinmas.  
Qilich yalong'ochlab tursa ham manfur  
Jaholat urug'i hech qachon unmas.

Islom bobom so'zi doimo yodda,  
Fikrga fikru, g'oyaga g'oya,  
Bo'lsa agar kamlik yo'qdir hayotda,  
Bu ezgu ishimiz baxtga zo'r doya.

Jaholatga qarshi ma'rifat bilan  
Javob bering, do'stlar, bo'lmangiz gumroh.  
Ma'rifat bor ekan, yashnaydi olam,  
Ma'rifat tufayli topgaymiz panoh.

Jaholat bor joydan diyonat qochar,  
Insof chekinadi bemajol, nari.  
Jaholat falokat yo'lini ochar,  
Uning etagidan tutganing sari

Jaholat, maqsading nimadir, asli?  
Yovuzlar qalbida ungan tikonsan.  
O'z yo'lingga boshlab odamzod naslin  
Halokatga olib borar ekansan.

Jaholat urug‘i unmasin dilda,  
Razolat botqog‘i mavh etmasin, yo‘q.  
Ma‘rifat yo‘ldoshdir bir umr yo‘lda,  
Ertangi kun yorug‘, u-la ko‘ngil to‘q.

Ma‘rifat, kelaqol, gullasin ochun,  
Noming o‘chsin tamom, sening jaholat,  
Senga ergashganlar kun kelib bir kun,  
Pushaymonda qolar, chekar nadomat.

Ogohlikdan bunyod yorqin kelajak,  
Hushyor bo‘lsak yorqin har bir onimiz.  
Turaylik tunu-kun saflarda sergak,  
Vatanga baxshida bo‘lsin jonimiz.

Tengdosh, sog‘lom turmush tarzini tanlaylik,  
Sport, san‘at bilan bo‘laylik oshno.  
Yashashdan maqsad ne? Teran anglaylik,  
Shundadir mohiyat, shundadir ma‘no.

Do‘stim ergashmaylik johilga,  
Bo‘lmaylik buzg‘unchi g‘oyalar quli.  
Qo‘limiz uzatsak doim oqilga,  
Bizlarni chorlaydi saodat yo‘li.

## NAMANGAN VILOYATI

Uychi tumani 1-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining  
6-sinf o‘quvchisi **Obilova Shoiraning**  
“**Jaholatga qarshi ma’rifat**” mavzusida yozgan she’ri

“Jaholatga qarshi ma’rifat”

Jaholatdan asrar ma’rifat  
Hammamizni asrar ma’rifat,  
Ishonchimiz asrar ma’rifat.

Ma’rifatdan boshlanar hayot,  
Ma’rifatdan topilar najot,  
Ichish, chekish zararli odat,  
Sport birla bo‘ling salomat.

Jaholatla bo‘lmaylik yomon.  
Ma’rifatla bo‘laylik omon  
Shodon qushlar quchishsin osmon,  
Jaholatdan asraydi iymon.

Yurtimizda unmas jaholat,  
Jaholatga qarshi adolat.  
Adolatla jaholatsiz yashaylik,  
Ma’rifatla pokligimiz bilaylik.

Ma’rifatni o‘rgatadi ustozlar,  
Jaholatni cheklatadi ustozlar.  
Musaffo osmoni yarashadi elimga  
Zilol suvi yarashadi elimga.

Ammo g'ayir dushmanlari elimning,  
Ko'rolmaydi shunday kunin yurtimning.  
Bu odobni kim o'rgatgan bilmadim,  
Qumli qo'ldan qizil gulni izladim.

Bobolarim o'gitini esladim,  
Yaxshilikka yomonlikni bilmadim  
Tengdoshlarim hayotini asradim.  
Momolarni ertagi, bobolarni hikmati  
Jaholatdan asraydi, ma'rifatga chorlaydi.

## SAMARQAND VILOYATI

Kattaqo‘rg‘on tumani 43-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabining  
7-sinf o‘quvchisi **Nurmurodova Nozimaning**  
“Jaholatga qarshi ma‘rifat” mavzusida yozgan she‘ri

“Jaholatga qarshi ma‘rifat”

Ogoh bo‘lgin, xalqim, notinchdir olam,  
Buzg‘unchi g‘oyalar yuribdi kezib.  
Ta‘qib etar ekan odamni odam,  
Ko‘p insonlar yurar yurtidan bezib.

Jaholat bag‘riga in qurganlar bor,  
Shon-shuhrat yo‘lida vijdonni sotib,  
Maqsadi yo‘lida tab tortmay hecham,  
Gunohga botishar bir-birin otib.

Islom bayrog‘ini etishib shior,  
Kofirning ishini qilishayotir.  
Tulkidek avrashib avval boshida  
So‘ngra bo‘ri kabi o‘lishayotir.

Turli davlatlarda terrorchi kuchlar,  
Elning tinchligini buzib yuribdi.  
“Islom davlatini tashkil etamiz”,  
Degan yot g‘oyani tuzib yuribdi.

Ularning quroli giyohvandlikdir,  
Telba qilib qo‘yar chekkan kishini.  
Telba kishi esa har nega qodir,  
Bajarar ularning aytgan ishini.

Islom dini bilan chalgʻitib ular,  
Yoʻldan urayotir koʻplab yoshlarni.  
Kelinglar berilmay yot gʻoyalarga  
Magʻrur koʻtaraylik aziz boshlarni.

Vatan muqaddasdir, ulugʻ sajdagoh,  
Koʻzimiz ustida asraylik uni.  
Tinchlikni saqlaylik, boʻlaylik ogoh,  
Yurtboshim daʼvati anglatar shuni.

Xulosa shu, doʻstim, koʻzginangni och,  
Jaholatga aslo berma qoʻlingni.  
Johil insonlarning toʻdasidan qoch,  
Maʼrifat bezasin oʻngu soʻlingni!



## QASHQADARYO VILOYATI

Eng yosh ijodkor nominatsiyasi g‘olibi  
G‘uzor tumani 54-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining  
9-sinf o‘quvchisi **Abdishukurova Xolnisaning**  
**“Jaholatga qarshi ma’rifat”** mavzusida yozgan she’ri

“Jaholatga qarshi ma’rifat”

Sizga Vatan so‘zi butkul begona,  
Bir pulga arzimas siz uchun ona.  
Siz sabab har qadam, har dam urushlar  
Vatanini sotgan vatanfuruslar.

Sizda mehr yo‘qdir, yurak tosh qotgan,  
Odamiylik o‘zi sizni tark etgan.  
O‘z osmonin o‘zlari sotgan  
Vatanini sotgan vatanfuruslar.

Yomonlik yo‘lida shaytonga ulfat,  
Tinchlik o‘lkasini egallar kulfat.  
Go‘yo qon qidirgan o‘laksa kalhat,  
Vatanini sotgan vatanfuruslar.

Onadek zotlarga qo‘lin ko‘targan,  
O‘z otasin o‘ldirib chohga itargan.  
Ota-ona qotili padarikushlar.  
Vatanini sotgan vatanfuruslar.

Sizni tuqqan ona nimani ko‘rdi,  
O‘z bolasi o‘zin qotili bo‘ldi.  
Yig‘lamay qabrida vahshiycha kuldi,  
Vatanini sotgan vatanfuruslar.

Dunyoga yot bo‘lgan g‘oyani surar,  
Burchak-burchaklarda pisinib yurar.  
Dinni niqob qilib, qurol ko‘tarar,  
Vatanini sotgan vatanfurushlar.

Qaysi din oladi begunoh jonni,  
Qaysi din oqizar suv emas qonni.  
Islomga tig‘ urgan sizku dinfurushlar,  
Vatanini sotgan vatanfurushlar.

Ollohni tildan qo‘ymaysiz,  
Vahshiysiz iymonni suymaysiz.  
Chumoliku, odam o‘lsa tirnoqchalik kuymaysiz,  
Vatanini sotgan vatanfurushlar.

Ular zahar sochmoqda hattoki yosh avlodga,  
Aylantirib qo‘ymoqda, so‘ngra vahshiy jallodga.  
Yuragi tosh qotgan begonadur shavqatga,  
Vatanini sotgan vatanfurushlar.

Go‘daklar yig‘laydi onasiz yetim,  
Qorni och, yalang‘och, betob betinim.  
Go‘daklarni o‘ldirgan qonli urushlar,  
Vatanini sotgan vatanfurushlar.

Yurtining kulini ko‘kka sovurib,  
Ollohdan so‘raydi jonlar oh urib,  
O‘liklar ustidan yuradi kulib,  
Vatanini sotgan vatanfurushlar.

Muqaddas tuproqni qonga belaysiz,  
Kofirlarga jannat va’da qilgaysiz.

Yurtni og‘ulaysiz og‘ufurushlar,  
Vatanini sotgan vatanfurushlar.

Xoin ichdan chiqsa yomon bo‘larkan,  
Odam o‘ylamagan ishni qilarkan.  
Eldan chiqib elni poymol qilarkan,  
Vatanini sotgan vatanfurushlar.

Bunyod qilmay vayron qilasiz,  
Xalqlarga g‘ulg‘ula qo‘rquv solasiz.  
Hatto odam sotgan odamfurushlar,  
Vatanini sotgan vatanfurushlar.

Niyatlari qora, qalblari qora,  
Siz sabab hammaning yuragi pora.  
Qaro yerdan ajdodlar aylaydi nola,  
Vatanini sotgan vatanfurushlar.

Dunyoni egallash niyati,  
Bu yo‘ldan hech qachon qaytmagay.  
Olloh hech suymaydi qilsa urushlar,  
Vatanini sotgan vatanfurushlar.

Siz sabab yosh ketgan o‘g‘lonlar,  
Yurt deya qalqonlar, posbonlar.  
Siz esa chayonlar, ilonlar,  
Vatanini sotgan vatanfurushlar.

Yomonlik qilganga yomonlik qaytar,  
Vatan kechirmaydi, xalq la’nat aytar.  
Ikki dunyo olloh munofiq aylar,  
Vatanini sotgan vatanfurushlar.

Munavvar yurtida nima kam edi?  
Seni o'ldirdiku o'sha urushlar.  
Sendan nima qoldi yorug' dunyoda,  
Vatanini sotgan vatanfurushlar.

Yaqining qoni ham oqdi daryoda.  
Sendan qoldi faqat qonli urushlar,  
Yomonlikdan yaxshilik ustun har qachon,  
Vatanini sotgan vatanfurushlar.

Yuraklarda vatan mehri hukumron.  
Sizga satqayisardir tanangizda jon,  
Vatanini qilmay obodlar,  
Vatanini sotgan vatanfurushlar.

Qilmoqchi edingiz vayron barbodlar,  
Tinch yotib kechirmas sizni ajdodlar.  
Sizlarni bu yo'ldan qaytarsin iymon,  
Vatanini sotgan vatanfurushlar.

Qalblarga qaytsin insoniy vijdon,  
Sizni mahf etadi mehr, kurashlar,  
Bizni birlashtirdi mustaqil Vatan,  
Vatanini sotgan vatanfurushlar.

Vatanga fidodir, satqa bo'lsin jon.  
Yurt deya fidodir har yurtdosh inson,  
Siz esa vatangado vatanfurushlar!

## MUNDARIJA:

So‘z boshi ..... 3

### **Insho yo‘nalishi:**

Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani 68-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining 8-sinf o‘quvchisi Boboqulova Tamanno ..... 4

Jizzax viloyati Jizzax shahri “Umid” ixtisoslashgan Davlat umumiy o‘rta ta’lim maktab-internatining 9-sinf o‘quvchisi Rahmatova Xonzodabegim..... 10

Sirdaryo viloyati 1-sonli xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktab-internatining 8-sinf o‘quvchisi Shodmonqulova Charos ..... 14

Toshkent shahar Shayxontohur tumani 34-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining 7-sinf o‘quvchisi Usmonxo‘jayeva E‘zoza..... 18

### **Rasm yo‘nalishi:**

Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumani 44-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining 8-sinf o‘quvchisi Xabibullayeva Komila..... 25

Toshkent shahar Chilonzor tumani 164-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining 8-sinf o‘quvchisi Muhammedov Jamshid..... 25

Surxondaryo viloyati Qumqo‘rg‘on tumani 70-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining 9-sinf o‘quvchisi Murodova Madina ..... 26

Xorazm viloyati Urganch shahri 24-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining 7-sinf o‘quvchisi Jumaniyozova Farangiz ..... 26

### **She‘r yo‘nalishi:**

Andijon viloyati Baliqchi tumani 12-sonli Davlat ixtisoslashgan umumiy o‘rta ta’lim maktabining 7-sinf o‘quvchisi Orifjonova Iroda ..... 27

Namangan viloyati Uychi tumani 1-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining 6-sinf o‘quvchisi Obilova Shoirra ..... 29

Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on tumani 43-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining 7-sinf o‘quvchisi Nurmurodova Nozima ..... 31

Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumani 54-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining 9-sinf o‘quvchisi Abdishukurova Xolnisa ..... 33